

MEHNAT MIGRATSIYASIDAN QAYTGAN YOSHLARNI ISH BILAN TA'MINLANISH VA PSIXOLOGIK HOLATINI O'RGANISH

Xamroyev Mansur Choriyevich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning ish bilan ta'minlanish holati hamda ularning psixologik holati ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mehnat migratsiyasi jarayoni yoshlarning kasbiy tajribasi, mustaqilligi va hayotiy qarashlarida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, biroq migratsiyadan qaytish bosqichi ko'pincha bandlik va psixologik moslashuv bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotda qaytgan yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvi, kasbiy o'zini anglash darajasi, stress, xavotir va emotsional barqarorlik ko'rsatkichlari o'rganiladi. Ayniqsa, munosib ish topishdagi qiyinchiliklar, kasbiy umidlar va real imkoniyatlar o'rtasidagi tafovut yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, oila va jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy yo'naltirish va psixologik yordam bandlik va psixologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar bandligini oshirish va psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, qaytgan yoshlar, ish bilan ta'minlanish, psixologik holat, bandlik, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы трудоустройства и психологического состояния молодежи, вернувшейся из трудовой миграции, с социально-психологической точки зрения. Опыт трудовой миграции оказывает значительное влияние на профессиональное становление, уровень самостоятельности и жизненные установки молодых людей. Однако этап возвращения часто сопровождается трудностями интеграции на рынке труда и психологическими проблемами, связанными с адаптацией к новым социальным условиям. В исследовании анализируются особенности трудоустройства, уровень профессиональной самореализации, эмоциональное состояние, стресс и тревожность у вернувшейся молодежи. Отмечается, что несоответствие между профессиональными ожиданиями и реальными возможностями трудоустройства негативно отражается на психологическом благополучии молодых людей. Особое внимание уделяется роли социальной поддержки со стороны семьи, общества и государственных институтов, а также значению профессионального консультирования и психологической помощи. Полученные результаты могут быть использованы при разработке программ занятости и психосоциальной поддержки молодежи, вернувшейся из трудовой миграции.

Ключевые слова: трудовая миграция, вернувшаяся молодежь, трудоустройство, психологическое состояние, занятость, социальная адаптация.

Abstract. This article examines the employment situation and psychological well-being of youth returning from labor migration from a socio-psychological perspective. Labor migration significantly influences young people's professional experience, independence, and life orientations; however, the return phase is often accompanied by challenges related to employment and psychological adjustment. The study analyzes the integration of returning youth into the labor market, their level of professional self-realization, and key psychological indicators such as stress, anxiety, and emotional stability. Particular attention is paid to the discrepancy between career expectations formed during migration and the actual employment opportunities available after return, which may negatively affect psychological well-being. The article also highlights the importance of social support from family, community, and public institutions, as well as the role of career guidance and psychological counseling in promoting successful employment and mental stability. The findings have practical implications for the development of employment policies and psychosocial support programs aimed at youth returning from labor migration.

Key words: labor migration, returning youth, employment, psychological well-being, labor market integration, social support.

Kirish. Bugungi globallashuv va mehnat bozoridagi o'zgarishlar sharoitida mehnat migratsiyasi ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston yoshlarining hayotida muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylangan. Ishsizlik, munosib daromad topish istagi, kasbiy tajriba orttirish va hayot sifatini yaxshilash kabi omillar yoshlarni chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirishga undamoqda. Mehnat migratsiyasi jarayoni yoshlarning kasbiy ko'nikmalari, mustaqilligi va hayotga bo'lgan qarashlarini rivojlantirishi bilan birga, ularning shaxsiy va psixologik holatida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, migratsiyadan qaytish bosqichi yoshlar hayotida eng muhim va murakkab davrlardan biri hisoblanadi.

Mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham dolzarb muammo hisoblanadi. Xorijda orttirilgan kasbiy tajriba va malaka har doim ham mahalliy mehnat bozori talablariga mos kelavermaydi, bu esa qaytgan yoshlarning munosib ish topishida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ish bilan ta'minlanishdagi muammolar esa yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi, kasbiy o'zini anglash darajasi va psixologik farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada stress, xavotir, umidsizlik va emotsional beqarorlik holatlari kuchayishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaralganda, bandlik va psixologik holat o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlardir. Ishsiz qolish yoki kasbiy kutilmalar bilan

real imkoniyatlar o'rtasidagi tafovut qaytgan yoshlarning jamiyatga moslashuvini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, oila, do'stlar, jamiyat va davlat institutlari tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy yo'naltirish va psixologik yordam yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi hamda psixologik barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarni ish bilan ta'minlanish holati va ularning psixologik holatini kompleks tarzda o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar yoshlar bandligini oshirish, ularning psixologik farovonligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan samarali dasturlarni ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning ish bilan ta'minlanishi va psixologik holatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu masala ikki asosiy yo'nalish kesishgan nuqtada shakllanadi: bir tomondan, qaytgan yoshlarning mahalliy mehnat bozoriga reintegratsiyasi (bandlik, kasbiy moslashuv, malaka "transferi"), ikkinchi tomondan esa, migratsiya tajribasi va qaytish davrida yuzaga keladigan psixologik jarayonlar (stress, identifikatsiya, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash).

Xorijiy tadqiqotlarda bandlikning shaxs ruhiy farovonligiga ta'siri ancha erta bosqichdayoq izchil asoslangan: masalan, M. Jahoda "ishsizlikning latent-deprivatsiya" yondashuvida ish nafaqat daromad manbai, balki vaqtni strukturaga solish, ijtimoiy maqom, jamoaga mansublik, maqsad va faollik kabi psixologik funksiyalarni berishini ko'rsatadi; demak, qaytgan yosh ish topa olmasa yoki "munosib ish" topish kechiksa, u faqat iqtisodiy emas, balki identitet va o'zini qadrlash inqirozini ham boshdan kechirishi ehtimoli ortadi. Shu mantiqda P. Warrning "vitamin modeli" ham mehnat sharoitlari (aniq talablar, nazorat, ijtimoiy kontaktlar, adolatli baholash) psixologik sog'lomlikka "vitamin" kabi ta'sir qilishini ta'kidlab, qaytgan yoshlar uchun bandlik sifati (barqarorlik, xavfsizlik, maqom) ruhiy holatning muhim prediktori ekanini anglatadi.

Bandlik va psixologik farovonlikning ichki mexanizmlarini tushuntirishda E. Deci va R. Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) alohida ahamiyat kasb etadi: u shaxsning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda motivatsiya va farovonlik oshishini ko'rsatadi; migratsiya tajribasiga ega yoshlar ko'pincha xorijda mustaqillik va kompetentlik hissini kuchaytirgan bo'lishi mumkin, ammo qaytgach kasbiy imkoniyatlar cheklansa, bu ehtiyojlar frustriyaga uchrab, xavotir, norozilik va motivatsiya pasayishiga olib keladi. Xuddi shuningdek, A. Banduraning o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) konsepsiyasi migratsiyadan qaytgan yoshlar nega ba'zan faol ish qidirish strategiyasini tanlashi, ba'zan esa passivlikka tushib qolishini izohlashga yordam beradi: yuqori self-

efficacy ish qidirish faolligi, moslashuvchanlik va to'sqinliklarni yengishga yordam bersa, takroriy rad javoblari yoki malaka mos kelmasligi bu ishonchni pasaytirib, "o'rganilgan ojizlik" (Seligman) elementlarini kuchaytirishi mumkin. Migratsiya va qaytish davridagi stress jarayonlarini izohlashda R. Lazarus va S. Folkman ishlab chiqqan stress–baholash–coping yondashuvi muhim nazariy poydevor beradi: yoshlar migratsiya davrida ko'plab stressorlarni (noaniqlik, ajralish, til va madaniy to'siqlar, mehnat ekspluatatsiyasi xavfi) boshdan kechiradi, qaytgach esa "qayta moslashuv stressi" paydo bo'lib, ish topish, jamiyat kutishlariga moslashish, oila bilan munosabatlarni qayta tiklash kabi vazifalar psixologik bosimni kuchaytiradi; bu holatda coping strategiyalarining samaradorligi (muammo yechishga yo'naltirilgan coping, emotsional coping, ijtimoiy yordam izlash) psixologik holatni belgilovchi omil bo'ladi.

Resurslar nuqtai nazaridan S. Hobfollning Conservation of Resources (COR) nazariyasi qaytgan yoshlar muammosini yanada tizimli tushuntiradi: migratsiya natijasida to'plangan resurslar (pul, ko'nikma, til, aloqalar) qaytishdan keyin "ishga aylanmasa", resurs yo'qotish hissi kuchayadi va bu stressni oshiradi; aksincha, resurslar mahalliy mehnat bozorida real imkoniyatlar bilan bog'lansa, psixologik barqarorlik ortadi. Reintegratsiya va qaytish migratsiyasi bo'yicha J.-P. Cassarino, shuningdek R. King va A. Christou kabi olimlar qaytish jarayonini oddiy "uyga qaytish" emas, balki tayyorgarlik, ijtimoiy tarmoqlar va institutsional sharoitlar bilan belgilanadigan murakkab bosqich sifatida talqin qiladi; bu yondashuv bandlik masalasini ham psixologik farovonlik bilan uzviy bog'laydi, chunki yoshlarning ish topishi ko'pincha ularning tarmoq aloqalari, mahalliy institutlar (bandlik xizmatlari, kasbga qayta tayyorlash) va jamiyatning qabul qiluvchanligi bilan belgilanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha S. Cohen va T. Willsning "buffering" g'oyasi ham qaytgan yoshlar kontekstida juda mos keladi: oila, do'stlar, mahalla va ish beruvchilar tomonidan ko'rsatiladigan ijobiy munosabat stress ta'sirini yumshatadi, stigma va rad etish esa aksincha, xavotir va depressiv tendensiyalarni kuchaytiradi; bu borada E. Goffmanning stigma haqidagi qarashlari qaytgan migrantlar "boshqacha", "ketib qoladigan" yoki "moslashmagan" sifatida stereotiplashganda, bu ularning ish topish jarayonida ham, o'z-o'zini baholashida ham salbiy oqibatlar berishini tushuntiradi. Rus ilmiy an'analarda migratsiya va moslashuv muammosi demografik-sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarda keng yoritilgan:

L. L. Рыбаковский migratsiyani ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qilib, uning oqibatlari va boshqaruv omillarini ko'rsatadi, V. A. Ионцев migratsiya nazariyalarining shakllanishini va tadqiqot metodologiyasini yoritadi, J. A. Зайончковская va V. И. Мукомель kabi tadqiqotchilar mehnat migratsiyasi oqimlari, moslashuv va ijtimoiy munosabatlar masalalarini tizimli ko'rib chiqadilar; bu ishlar qaytgan yoshlar bandligi va psixologik holatini o'rganishda makro va mezo omillar

(mehnat bozori, institutlar, ijtimoiy kayfiyat)ni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy psixologiya doirasida G. M. Андреева shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi muloqot, ijtimoiy persepsiya va guruhviy mansublik orqali kechishini asoslaydi, A. A. Леонтьевning muloqot psixologiyasi esa kommunikativ to'siqlar va o'zaro tushunish muammolari bandlik jarayonida (intervyu, jamoaga kirish, professional kommunikatsiya) ham hal qiluvchi ahamiyatga egaligini anglatadi; kasbiy moslashuv va kasb tanlash yo'nalishlarida rus maktabi (masalan, E. A. Климовning kasbiy yo'nalishlar konsepsiyasi) qaytgan yoshlarning "kasbiy o'zini anglash"i va mehnat bozoridagi mos kelish (person-job fit) muammolarini tahlil qilishga metodik asos beradi.

Umuman olganda, rus va xorijiy adabiyotlar bir xulosaga olib keladi: mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning ish bilan ta'minlanishi va psixologik holati o'zaro sabab-oqibatli bog'langan tizim bo'lib, bandlikning mavjudligi va sifati (barqaror ish, munosib ish haqi, professional o'sish, adolatli muhit) psixologik farovonlikni oshiradi, psixologik resurslar (self-efficacy, coping, chidamlilik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash) esa bandlikka kirish va ish topish strategiyalarini kuchaytiradi; shu sababli, ushbu mavzuni o'rganishda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmasdan, psixologik diagnostika (stress, xavotir, depressiv simptomlar, motivatsiya, o'zini baholash), ijtimoiy kapital va qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, shuningdek, mehnat bozoriga integratsiya mexanizmlarini birgalikda tahlil qilish eng maqbul ilmiy yondashuv sifatida ko'riladi.

Muhokama. Mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning ish bilan ta'minlanishi va psixologik holatini muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu masala faqat bandlik ko'rsatkichlari bilan cheklanib qolmaydi, balki shaxsning ichki psixologik resurslari va ijtimoiy muhit omillarining murakkab o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Migratsiya tajribasi yoshlarning kasbiy salohiyati, mustaqilligi va hayotga pragmatik munosabatini kuchaytirishi mumkin, biroq qaytish bosqichida ushbu tajriba har doim ham mahalliy mehnat bozori sharoitlari bilan uyg'unlashavermaydi. Natijada, ish topishdagi qiyinchiliklar yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi, kasbiy o'zini anglash darajasi va umumiy psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muhokama davomida aniqlanishicha, qaytgan yoshlar ko'pincha xorijda shakllangan kasbiy kutishlar bilan mahalliy mehnat bozoridagi real imkoniyatlar o'rtasidagi tafovutni boshdan kechiradilar. Ushbu tafovut ularning motivatsiyasi pasayishiga, stress va xavotirning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, uzoq muddat ish topa olmaslik yoki o'z malakasiga mos bo'lmagan ish bilan shug'ullanish holatlari yoshlarning psixologik holatida umidsizlik, emotsional charchoq va ijtimoiy chekinish tendensiyalarini kuchaytiradi. Bu jarayonda o'z-o'zini baholashning pasayishi va kelajak rejalari borasidagi noaniqliklar muhim psixologik xavf omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning psixologik holati ularning ish qidirish strategiyalari va moslashuv uslublariga ham ta'sir qiladi. Yuqori darajadagi o'ziga ishonch, stressga bardoshlilik va faol coping strategiyalariga ega bo'lgan yoshlar mehnat bozoriga nisbatan faol pozitsiyani egallab, ish topish imkoniyatlarini kengaytirishga intiladilar. Aksincha, psixologik resurslari zaif bo'lgan yoshlar passivlik, kechiktirish yoki mehnat bozoridan vaqtincha chekinish strategiyalarini tanlashlari mumkin. Demak, bandlik va psixologik holat o'zaro kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi aylana hosil qiladi.

Muhokamada ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Oila a'zolari, do'stlar, mahalla va davlat institutlari tomonidan ko'rsatiladigan yordam qaytgan yoshlarning psixologik barqarorligini saqlash va ularni ish qidirish jarayonida qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan holatlarda yoshlar o'zlarini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his etadilar, bu esa ularning motivatsiyasi va mehnat bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Aksincha, ijtimoiy e'tiborsizlik, tanqidiy munosabatlar yoki stereotiplar yoshlarning psixologik holatini izdan chiqarib, ish topish jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Umuman olganda, muhokama natijalari mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning ish bilan ta'minlanishi va psixologik holati o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlar ekanini ko'rsatadi. Ushbu muammoni samarali hal etish uchun bandlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy choralar bilan bir qatorda psixologik maslahat, kasbiy yo'naltirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini uyg'unlashtirish zarur. Ana shundagina mehnat migratsiyasi tajribasi yoshlar uchun psixologik xavf omiliga emas, balki ularning kasbiy rivoji va jamiyatga foydali integratsiyasini ta'minlovchi resursga aylanishi mumkin.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy va tahliliy mulohazalar shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularning psixologik holatini baholash bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Migratsiya tajribasi yoshlarning kasbiy salohiyati, mustaqilligi va moslashuvchanligini oshirishi mumkin bo'lsa-da, qaytish bosqichida ushbu tajribaning mahalliy mehnat bozori sharoitlari bilan mos kelmasligi bandlik va psixologik barqarorlik bilan bog'liq qator muammolarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ish topishdagi qiyinchiliklar, kasbiy kutilmalar va real imkoniyatlar o'rtasidagi tafovut yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, stress, xavotir va emotsional charchoqni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qaytgan yoshlarning psixologik holati ularning ish qidirish faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va kasbiy o'zini anglash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Psixologik resurslari yuqori bo'lgan yoshlar mehnat bozoriga faol moslashib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga intiladilar, psixologik jihatdan zaifroq bo'lgan yoshlar esa passivlik va ijtimoiy chekinish

holatlariga moyil bo'ladilar. Shu bois, bandlik masalasini hal etishda faqat iqtisodiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, psixologik omillarni ham inobatga olish muhimdir.

Shuningdek, xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi - oila, jamiyat va davlat institutlari tomonidan ko'rsatiladigan yordam - qaytgan yoshlarning psixologik farovonligini saqlash va ularning ish bilan ta'minlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixologik maslahat, kasbiy yo'naltirish va bandlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarining uyg'unlashuvi yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlaydi.

Umuman olganda, mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlarning ish bilan ta'minlanishi va psixologik holatini kompleks o'rganish ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahoda M. Employment and Unemployment: A Social-Psychological Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – 256 p.
2. Warr P. Work, Unemployment, and Mental Health. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 327 p.
3. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
4. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W. H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.
5. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984. – 456 p.
6. Hobfoll S. E. Conservation of Resources: A New Attempt at Conceptualizing Stress // American Psychologist. – 1989. – Vol. 44, No. 3. – P. 513–524.
7. Cassarino J.-P. Theorising Return Migration: The Conceptual Approach to Return Migrants Revisited // International Journal on Multicultural Societies. – 2004. – Vol. 6, No. 2. – P. 253–279.
8. King R., Christou A. Cultural Geographies of Counter-Diasporic Migration // Population, Space and Place. – 2011. – Vol. 17, No. 5. – P. 451–466.
9. International Organization for Migration. World Migration Report 2022. – Geneva: IOM, 2022. – 520 p.
10. United Nations. International Migration 2020 Highlights. – New York: United Nations, 2020. – 44 p.
11. Рыбаковский Л. Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – Москва: Наука, 2003. – 256 с.
12. Ионцев В. А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – Москва: Диалог-МГУ, 1999. – 370 с.